

XOJA HIKOYALARIDA SULTONLARGA XOS FAZILATLAR

(*"Miftoh ul-adl" hikoyalari asosida*)

Axbobova Roziyaxon Qahhor qizi

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti talabasi **Annotatsiya:** Ushbu maqolada Poshshoxoja hikoyalarida keltirilgan sulton obrazlari hamda sultonlarga xos bo'lgan fazilatlar haqida so'z boradi hamda "Miftoh ul-adl" asari asosida sultonlarga xos fazilatlar, ularning adolat, hikmat, insof, halollik, xalqparvarlik kabi xislatlar orqali yoritilishi tahlil qilinadi. Hikoyalardagi ramziy obrazlar, sulton–xalq munosabatlari va rahbar shaxsida bo'lishi lozim bo'lgan fazilatlar ilmiy-nazariy nuqtai nazardan sharhlanadi.

Kalit so'zlar: adolat kaliti, sharq adabiyoti, adolat, ilm-fan, fazilatlar, asl sultonlar, Poshshoxoja, Miftoh ul-adl

Sharq adabiy merosida davlat boshqaruvi, adolat va hukmdor fazilatlar masalasi alohida o'rin tutadi. Xoja kabi mutasavvif va mutafakkirlar tomonidan yozilgan asarlar esa mazkur mavzuni yanada mukammalroq tushunishga xizmat qiladi. Uning asl ismi Ibodulla Sayyid Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja bo'lib, Xoja uning taxallusidir. Xoja 1480 - yilda Balxda dunyoga kelgan. U Davlat arbobi bo'lib, sadrlik hamd qshayxulislomlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. U o'zbek adabiyotida kichik nasriy hikoyalar ustasi sifatida mashhur. Uning "Gulzor", "Maqsad ul-atvor", "Miftoh ul- adl" kabi asarli anchayin mashhur. Xususan, "Miftoh ul - adl" asari Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonga bag'ishlangan bo'lib, go'yo valiahd shahzodaga hukmdor qanday bo'lishi kerakligini o'rgatuvchi manba bo'lib xizmat qiladi.

"Miftoh ul-adl" — adolat kaliti sifatida hukmdorning insoniy va ruhiy barkamolligini asos qiluvchi nodir asardir. Undagi hikoyalar orqali sulton obrazida bo'lishi zarur fazilatlar ramziy va badiiy talqinlarda beriladi.

"Miftoh ul-adl"dagi ko'plab hikoyalarda adolat masalasi bosh g'oya sifatida ilgari suriladi. Adolatning naqadar ulug' ish ekanligini ko'rsatish uchun bir qancha hikoyalar

keltiradi. Ulardan biri haj savobini sotib olmoqchi bo'lgan hukmdor va yigirmatta haj savobini hukmdorning bir soatlik adolatiga almashmoqchi bo'lgan zohid hikoyasidir. Sultonning adolatdan og'ishi xalqning boshiga kulfatlar yog'ilishiga sabab bo'lishi hikoyaviy misollar orqali ko'rsatiladi. Bunga Bahrom Go'r va uning vaziri Rostiravshan haqidagi hikoyani misol tariqasida keltiradi. Ushbu hikoya orqali sultonlarni ziyraklikka, har qanday ishonchli odam bo'lsa-da, qo'l ostidagi amaldorlarni nazoratsiz qoldirmaslikka ham chorlaydi.

Xoja hikoyalarida sultonning o'tkir zehn, teran fikr va puxta tadbir egasi bo'lishi talqin etiladi. Bunga esa Sulton Mahmud G'aznaviy va tolibi ilm o'rtasida bo'lgan voqeani misol qilib keltiradi. Unda qozining ustidan arz qilib kelgan tolibi ilm hamda ushbu muammoni oqilona hal etgan sulton o'rtasidagi muloqotni keltiradi. Ushbu hikoyada faqat sulton obrazigina emas, balki zakiy tolibi ilm obrazi ham e'tiborlidir. Mamlakat sultoni qozilik unvonini taklif etib turganda, nafsiga qarshi turib uni rad eta olgan tolibi ilm (talaba) yoshlarga o'rnak qilib ko'rsatsa bo'ladigan inson sifatida gavdalangan.

"Miftoh ul-adl"da ko'plab sultonlar xalqning dardini o'z dardidek his qiluvchi rahbar sifatida tasvirlanadi. Bir hikoyada hukmdor oddiy odamning uyiga mehmon bo'lib boradi, uning shikoyatini o'rganib, zudlik bilan yordam beradi. Bu kamtarlik va insoniylikning yuksak namunasi.

"No'shiravon, kampir va ozarbayjon hukmdori" haqidagi hikoyani keltirish orqali hukmdor hamisha xalqni tinglashi, uning dardi bilan qiziqishi kerakligini uqtiradi, adib. Ammo, shu bilan kifoyalanib qolmay, zakiy bo'lishi kerakligi ham eslatib o'tiladi. No'shiravon uning yoniga kelgan kampirning so'zlari bilan cheklanib qolmay, o'sha yurtga o'z "odami" ni yuborib, vaziyatni to'la-to'kis o'rgangandan so'nggina qaror qabul qildi. Bu hilan Poshshoxoja adolatli qaror chiqarish uchun har ikkala tomonni ham tinglash kerak demoqchi bo'lsa ajab emas.

Xulosa qilib aytganda, Xojaning "Miftoh ul -adl" asari o'z nomidan ko'rinib turganidek, "Adolat kaliti" dir. Xoja ushbu asari orqali o'sha davr sultonlariga nasihat, yo'l-yo'riq ko'rsatmoqchi bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. U kichik hikoyalar keltirish

orqali haqiqiy sulton qanday bo'lishi kerak ekanligini ko'rsatib o'tadi. Xoja keltirgan har bir hikoya thb zamirida podshohlik qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatuvchi bir ma'no bor. Ushbu asari orqali Poshshoxoja asl davlat rahbari o'zida adolat, ziyraklik, mulohazakorlik, ilm, sabr-toqat kabi bir nechta fazilatlarni mujassamlashtirishi kerak ekanligini ta'kidlaydi. Uning bu asari bo'lg'usi sultonlar uchun dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Poshshoxoja. "Miftohi ul – adl" va "Gulzor" dan. – T.: Ozdavnashr, 1962.
2. M. Mirzaaxmedova. "Xoja" monografiya. - Toshkent, 1975.
3. Tohirjonov A. Xojaning yangi topilgan asari // "O'zbek tili va adabiyoti". 1975, 3-son.
4. Ibragimov, X, Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." - T.: Fan va texnologiya 288 (2008).